

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MANTIQ VA FALSAFAGA OID QARASHLAR

Boymirzayeva Xurshida Sobirovna

*Samarqand Davlat Tibbiyat Universiteti Ijtimoiy va gumanitar
fanlar kafedrasi o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Amir Temur davlati o‘z davrida Ovro‘po va Osiyodagi eng yirik, mustahkam va rivojlangan davlat sifatida tanildi. Amir Temur vafotidan so‘ng ham XVI asr boshiga qadar uning avlodlari mamlakatga hukmronlik qildilar. Temuriylar davrida markaziy davlat ikkiga - Movarounnahr va Xurosonga ajratilib idora etildi. Samarqand va Hirot bu ikki davlatning markazi bo‘lib xizmat qildi. Ayniqsa, Temuriylardan uzoq vaqt hukmronlik qilgan Shohrux, Ulug‘bek, Husayn Boyqaro davrlarida madaniyat gullab-yashnadi. XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda mantiq va falsafa fanlari bilan shug‘ullangan yirik olimlar paydo bo‘ldi.

Kalit so’zlar: Temuriylar davri, ilm-fan, Sa’duddin bin Umar Taftazoniy, islom falsafasi, mantiq, bilish nazariyasi, borliq falsafasi

Annotation

The Emir Temür state became known in its time as the largest, most robust and developed state in Ovroopo and Asia. Even after the death of Emir Temür, his descendants ruled the country until the beginning of the 16th century. Under the Timurids, the central state was divided into two parts - Movarounnahr and Khurosan. Samarkand and Herat served as the center of these two states. Especially during the reign of Shahrukh, Ulughbek, Husayn Boyqaro, who ruled for a long time from the Temurians, the culture flourished. In the XIV-XV centuries, major scientists appeared in Central Asia, who were engaged in the sciences of logic and philosophy.

Keywords: Timurid era, Science, SA'duddin bin Umar Taftazani, Islamic philosophy, logic, theory of knowledge, philosophy of being

Amir Temur-o‘rta asrning yirik davlat arbobi, buyuk sarkarda, kuchli, markazlashgan davlat asoschisi, ilm-fan va madaniyat homiysi. Amir Temur tarqoq va uzoq urushlardan xonavayron bo‘lgan Movarounnahr va Xurosonga yerlarini mo‘g‘ullar mustamlakasidan ozod etib, yagona, mustaqil va mustahkam davlatga birlashtirdi. Uning markazi etib Samarqand shahri tanlandi. Amir Temur davlati o‘z davrida Ovro‘po va Osiyodagi eng yirik, mustahkam va rivojlangan davlat sifatida tanildi. Amir Temur vafotidan so‘ng ham XVI asr boshiga qadar uning avlodlari mamlakatga hukmronlik qildilar. Temuriylar davrida markaziy davlat ikkiga - Movarounnahr va Xurosonga ajratilib idora etildi. Samarqand va Hirot bu ikki davlatning markazi bo‘lib xizmat qildi.

Ayniqsa, Temuriylardan uzoq vaqt hukmronlik qilgan Shohrux, Ulug‘bek, Husayn Boyqaro davrlarida madaniyat gullab-yashnadi.

XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda mantiq va falsafa fanlari bilan shug‘ullangan yirik olimlar paydo bo‘ldi. Bu fanlarning rivoji, asosan ikki yirik mutafakkir – Sa’duddin bin Umar Taftazoniy va Mir Sayyid Sheroziy nomlari bilan bog‘liqdir. Jurjoniy va Taftazoniylardan tashqari, Samarqandda o‘sha davrda Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsiddin Munshiy, Mavlono Abdulla Lison, Mavlono Badriddin Ahmad, Mavlono Nug‘- moniddin Xorazmiy, Xoja Afzal, Jalol Hokiylari va boshqa olimlar yashab ijod etganlar.

Sa’duddin Ma’sud binni Umar Taftazoniy (1322-1392) islom falsafasi bo‘lgan kalomning yirik vakili edi. U Niso (Ashxobod) shahri yaqinidagi Taftazon qishlog‘ida tug‘ildi. *Al-Ijiy va Qutbiddin ar-Roziy at-Taxtoniy* kabi mashhur olimlardan ta’lim oldi. Taftazoniy o‘ttiz yilga yaqin davr ichida G‘ijduvon, Jom, Turkiston, Hirot va Mavoraunnahrning boshqa shaharlaridagi madrasalarda dars berib, yirik olim sifatida shuhrat qozondi.

Taftazoniyning shuhrati o‘z poytaxti Samarqandga eng mashhur olimlar, hunarmandlar va ustalarni to‘playotgan Amir Temurga ham yetib keladi. U Taftazoniyni Samarqandga chaqirtiradi. Taftazoniy umrining oxirigacha saroyda yashaydi va 1392-yilning 12-avgustida vafot etadi. U Temur huzurida doimiy o‘tkazilib turiladigan ilmiy bahslarda faol qatnashar edi. U o‘zining kalom, mantiq, geometriya, she’riyat va arab tili grammatikasi sohasidagi bilimlari bilan shuhrat topgan edi.

Ma’lumotlarga qaraganda, uning ilmiy-ma’naviy merosiga mansub asarlarning soni o‘ttiztaga yetadi. Bizgacha “Tahzib al-mantiq va-l-kalom” (“Mantiq va kalomga sayqal berish”), “As-Sa’diya” (XIII asr oxiri va XIV asr birinchi yarmida yashagan Kotibiyning mantiqqa oid “Ash-Shamsiya” risolasiga yozilgan sharh), “Al-mutavvol” (“Keng talqin”), “Muhtasar al-maoniy” (“Kisqacha ma’nolar”), “Al-irshod al-hodiy” (“Yo‘l boshlovchi rahbar”), “Al-maqosid at-tolibin” (“Tolibi ilmlarning maqsadlari”), “Risola fi zavoye al-musallas” (“Uchburchakning burchaklari haqida risola”) kabi asarlaridan tashqari o‘zidan oldin o‘tgan mutafakkirlar asarlariga yozgan sharh va hoshiyalari yetib kelgan. Taftazoniy o‘z falsafiy qarashlarida tabiat hodisalari o‘rtasida sabab-oqibat munosabatlari mavjudligiga shubha qilmay, borliqning ana shunday munosabatlarini diqqat bilan tahlil etib, sabab va oqibatning muayyan turlarini ajratib ko‘rsatadi. “Sabab – bu shunday narsaki, narsaning mavjud bo‘lishi unga bog‘liqdir. Sabab ichki va tashqi ko‘rinishlarga ega. Agar sababning muayyan belgilari oqibatga ko‘chib o‘tsa, unda ichki sabab namoyon bo‘lgan bo‘ladi, agarda buning aksi bo‘lsa, unda tashqi sabab o‘zligini qo‘rsatgan bo‘ladi”.

Sa’duddin Taftazoniy o‘zining «Tahzib al-mantiq va al-kalom» asarida insonning xulq-atvoridagi iroda erkinligi masalasiga kengroq to‘xtaladi. Uning fikricha, har qanday oljanoblik va xayrli ishlar o‘z tabiatiga ko‘ra xudoning mohiyatidan kelib

chiqadi va u hamma narsaning xoliqi sifatida xayr-sharofatning yaratganligi sababidan insonlarni yomon xulq-atvordan tiyilib turishga chorlaydi. Yomon xulqlar, gunohlar insonga xos narsalar bo‘lmasdan, ular faqat kishilarni sinash uchun yaratilgandir. Shunday qilib, uning fikricha, xudo o‘z bandalariga ikki yo‘lni «taklif» etadi, ya‘ni sharaflı, xayrli faoliyat ko‘rsatishni yoki nomatlub mashg‘ulotlar bilan gunohga botishni, gunohga botish esa jazoga tortilishni keltirib chiqaradi. Mutafakkirning ta‘kidlashicha, xudo tomonidan ko‘proq insonlarga xayrli ishlar qilish, g‘ayrishar‘iy ishlar kamroq bo‘lishi ta‘kidlanadi. Qaysi yo‘lni tanlash insonning o‘z irodasiga bog‘liqdir. Shuning uchun xudo yomon xulq-atvorli insonlarni jazolaydi. Yomon xulq-atvorni qoralash xudoning irodasiga qarshi borish emas, chunki yomonlikni yer yuzida mavjudligi insonlarni poklikka chorlovchi sinovdir.

Taftazoniy fikricha, mantiq-tafakkurdagi xatoliklardan xalos qiladigan vosita bo‘lib, yangi bilimlar hosil qilish uchun zamindir. Mantiqiy bilish shakllari tasavvur va tasdiqdir. Biror ashyo yoki hodisani tasavvur etish va uning to‘g‘risida hukm chiqarishda asosiy o‘rinni til bajaradi. Ong va uning belgisi nutq bilan bevosita bog‘langandir. Biror ashyo yoki hodisa belgisi bo‘lgan so‘zlar, biror-bir mazmun tufayligina qandaydir ma’no kasb etadi. Taftazoniy fikricha, mantiq fani mavhum mantiqiy ong bilan bog‘langan bo‘lib, tushuncha va hukmni ifodalovchi so‘zlar va gaplarni tahlil etadi.

Mir Sayyid Sharif Jurjoniyning (1339-1413) falsafiy qarashlari va mantig‘i. Amir Temur tomonidan Sheroz fath etilishi munosabati bilan 1387 yilda u yerdagi yirik olimlar qatorida *Samarqandga* kelganlar orasida mashhur faylasuf va mantiqshunoslardan Ali ibn Muhammad Mir Sayyid Sharif Jurjoniy ham bor edi. Ilmiy adabiyotlarga Mir Sayyid Sharif nomi bilan kirgan Ali ibn Muhammad ibn Ali Husayniy Jurjoniy 1339 yilda Eronning Gurgon viloyati markazi bo‘lgan Astrobod shahri yaqinidagi Tog‘u qishlog‘ida tug‘ildi.

Jurjoniy Samarqandning mashhur madrasalarida falsafa, mantiq, falakiyat, fihq, til va adabiyot, munozara ilmi va boshqa fanlardan dars berib o‘zidan yaxshi nom qoldirdi. Uning shogirdlari orasida Qozizoda Rumi, Ulug‘bek va boshqalar bor edi. Jurjoniy asarlarining umumiy soni 50 dan oshiqdir. Bular ichida falsafa, mantiq va tabiatshunoslikka doir asarlar salmoqli o‘rinni egallaydi, o‘z navbatida, bu sohadagi asarlari butun Sharq mamlakatlariga keng yoyilgandir.

Jurjoniyning bizgacha «Borliq haqida risola» va «Dunyoni aks ettiruvchi ko‘zgu» deb nomlangan falsafiy asarlari qo‘lyozma holida yetib kelgan.

Jurjoniy bilish nazariyasi va mantiqqa doir «At-ta‘rifot»(«Ta‘riflar»), «Usuli mantiqiy» («Mantiq usuli») va ilmiy bahs faniga bag‘ishlangan «Odob ul-munozara» («Munozara olib borishning qoidalari haqida risola») kabi arab tilida yozilgan asarlarning ham muallifidir. Jurjoniyning fors tilida yozilgan mantiqqa oid bir necha asarlari ham bizgacha yetib kelgan. Bulardan «Kubro» («Katta dalil bo‘la oladigan

hukm»), «Avsat dar mantiq» («Mantiqda o‘rtta xulosa»), «Sug‘ro» («Kichik dalil bo‘la oladigan hukm») va boshqalarni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Uning «Sharhye faroyize sarojiya» («Meros bo‘lish majburiyatlarining Sarojiy ta’rifiga sharh») asari huquqshunoslik masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, faqih Sajovandiy asarlariga javob tariqasida yozilgan (Jurjoni. Sharhye faroize sarojiya. Stambul. 1873 yil).

Borliq haqida ta’limot. Jurjoniyning falsafiy qarashlari Forobiyl, «Sof birodarlar» anjumani, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy va Qutbiddin ar-Roziy at-Taxtoniylar dunyoqarashi ta’siri ostida shakllandi. Ular kabi, Jurjoniy ham ob’ektiv borliqning mavjudligiga shubha qilmas edi, ammo uning kelib chiqishini aqliy yo‘sinda talqin qilib, *emanatsiya* nazariyasi nuqtai nazarida turar edi.

Jurjoniy o‘zining «Risola fi tahqiqye vujud» («Borliqni tekshirish risolasi») asarida yozadiki, borliqning haqiqiyligi o‘z mohiyatiga ko‘ra mavjuddir va uning yo‘q bo‘lishining o‘zi mumkin emas.

Jahon ilm-fani taraqqiyotiga katta ulush qo‘sghan buyuk falakiyotchi olim va davlat arbobi Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek (1394-1449 yy.) matematika va falakiyot sohasida barkamol ijod qilgan. Uning otasi, Amir Temuring o‘g‘li Shohruh Mirzo edi. Ulug‘bek yoshligidan ilm bilan qiziqdi. Unga taniqli olimlar Qozizoda Rumiy va G‘iyosiddin Jamshid ustozlik qildilar. U garchi davlat arbobi bo‘lsa ham, madaniyat va ilm-fan ravnaqiga ko‘p kuchini sarfladi, matematika, astronomiya, geometriya, tarix, kimyo va boshqa sohalarda ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Olimning dunyoqarashida Aflatun, Arastu, Ptolemey, Muhammad Xorazmiy, al-Farg‘oniy, Forobiyl, ibn Sino, Beruniy va boshqalarning asarlari muhim o‘rin egalladi.

Umuman shuni ta’kidlash lozimki, Ulug‘bek va u asos solgan astronomiya maktabi koinotdagi hodisalarni o‘rganishda muhim rol o‘ynadi, o‘sha vaqtgacha fanga ma’lum bo‘lmagan hodisalarni idrok qilib, inson aql-zakovatining bilish imkoniyatlarini kengaytirdi, keyingi davrlarda yashagan olimlarga samarali ta’sir ko‘rsatdi. Ulug‘bekning astronomiya sohasidagi g‘oyalarini yevropada XVI asrdan boshlab Kopernik, Galiley va boshqalar rivojlantirdilar. Ulug‘bek hukmronlik qilgan davrda fan va madaniyat keng taraqqiy etdi. Shu davrda Samaraqandda Qozizoda Rumiy, Muyiddin va uning o‘g‘li Mansur Koshiy, Ali ibn Muhammad Jurjoniy, Xirotda Alisher Navoiy, Abduraxmon Jomiy, ulug‘ rassom Behzod, tarixshunos Xondamir, Xattot, Sulton Ali Mashxadiy va boshqalar ijod qilganlar. Boshqa tabiyotshunoslar singari Ulug‘bek va uning shogirdlari moddiy olamni kishi ongidan tashqarida ob’ektiv mavjudligiga shubha qilmadilar va uni chuqur o‘rganishga da’vat etdilar.

Qomusiy bilim egasi bo‘lgan Mirzo Ulug‘bek riyoziyot, falakiyot, musiqashunoslik, falsafa, tarix sohasida ijod qilgan. U «Bir darajaning sinusini aniqlash haqida risola», «Risolalar ilmidan musiqa», «Risolai yirik tarixiy kitob»ni ham muallifidir.

Ulug‘bekning nomini butun dunyoga yoygan, o‘ta shon-shuxrat keltirgan bebaho asar «Ziji jadidi Kuragoniy»dir. Bu asar Ulug‘bekning 20 yil davomida olib borgan astronomik kuzatishlarining natijasi bo‘lib, uning asosiy qismi yulduzlar jadvalidan iboratdir. Ulug‘bek o‘limidan keyin 200 yil davomida bu jadval o‘zini aniqligi va ilmiylici bilan tengi yo‘q hisoblanib kelingan.

Shu davrning yorqin yulduzlaridan biri - o‘zbek xalqining buyuk farzandi, buyuk mutafakkir, siyosiy arbob, insonparvar shoir Alisher Navoiy edi. Navoiy fan, adabiyot, san’atning turli sohalariga doir qirqdan ortiq asar yaratdi. «Chor devon», «Hamsa», «Maxbubul qulub», «Muxokamatul lug‘otayin», «Majolisun nafois» va boshqalar shular jumlasidandir. Alisher Navoiyning falsafiy qarashlari turli asarlarida sochilgan holda bayon etilgan.

Ularda borliq va uning mohiyati, inson va inson hayotining mazmuni haqida chuqur falsafiy mulohazalar, insonning baxt saodati haqidagi orzu-umidlari,adolat va axloqiy kamolot, komil inson va fozil jamoa, ularga yetish yo‘llari va choralari xususida izlanishlar o‘z ifodasini topgan. Navoiy o‘z falsafiy qarashlarida hamma narsa 4 moddiy elementdan - o‘t, suv, havo, tuproqdan tashkil topgan deb ko‘rsatadi. Uningcha moddiy olam doim harakatda va o‘zgarishda. Navoiy moddiy olamni bilish mumkin ekanini asosan e’tirof etadi. Uningcha, bilishning manbai real voqelikdir, dunyoda mavjud narsalarning hammasi hislarimizning predmetidan (ob’ektidan) iborat. Navoiy inson o‘zining 5 sezgi a’zolari orqali tashqi moddiy dunyo bilan aloqa bog‘laydi va u to‘g‘risida aniq ma’lumotlarga ega bo‘ladi, ularni miyasida tafakkur yordamida umumlashtiradi, qayta ishlaydi so‘ngra muayyan xulosa chiqaradi deyiladi. Alisher Navoiy insonni butun koinotning markaziy siymosi, butun mavjudotning toji deb biladi. Insonni bezaydigan go‘zal hislat va fazilatlar sifatida odob-axloqli, kamtar, muruvvatli, rostgo‘y, mehnatsevar, saxiy bo‘lishni alohida ta’kidlaydi. Uning asarlari markazida turgan belgilovchi va yo‘naltiruvchi bosh masala - inson, xalq, Vatan, uning gullab yashnashi, istiqboli haqidagi muammolardir. Navoiy inson va uning taqdiri xalq va uni manfaatlari yo‘lida g‘amxo‘rlik qiladigan kishilarni ulug‘laydi.

Xulosa, Amir Temur va Temuriylar davrida fan va madaniyat rivojlandi, xalqning ijtimoiy va iqtisodiy hayoti ham yaxshilandi. Amir Temur davlati o‘z davrida Ovro‘po va Osiyodagi eng yirik, mustahkam va rivojlangan davlat sifatida tanildi. Amir Temur vafotidan so‘ng ham XVI asr boshiga qadar uning avlodlari mamlakatga hukmronlik qildilar. Temuriylar davrida markaziy davlat ikkiga - Movarounnahr va Xurosonga ajratilib idora etildi. Samarqand va Hirot bu ikki davlatning markazi bo‘lib xizmat qildi. Ayniqsa, Temuriylardan uzoq vaqt hukmronlik qilgan Shohrux, Ulug‘bek, Husayn Boyqaro davrlarida madaniyat gullab-yashnadi.

XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda mantiq va falsafa fanlari bilan shug‘ullangan yirik olimlar paydo bo‘ldi. Bu fanlarning rivoji, asosan ikki yirik mutafakkir – Sa’duddin bin Umar Taftazoniy va Mir Sayyid Jurjoniy nomlari bilan bog‘liqdir. Jurjoniy va

Taftazoniylardan tashqari, Samarqandda o'sha davrda Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsiddin Munshiy, Mavlono Abdulla Lison, Mavlono Badriddin Ahmad, Mavlono Nug'- moniddin Xorazmiy, Xoja Afzal, Jalol Hokiylar yashab ijod etganlar.

Foydalangan adabiyotlar:

1. "Ma'naviyat yulduzlari" (*Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999*) kitobidan olindi.
2. Ma'naviyat yulduzlari / muharrir F. Hasanov. - T.: 0 'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. 368-b
3. B.Ahmedov "Amir Temurni yod etib" T.:1996
4. B.Ahmedov "Sohibqiron Temur" T.:1996
5. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli T.:1968
6. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi T.:1994
7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-jild, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. – T.; 2004.
8. Islom ensiklopediyasi. – T.; O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.